


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
TERMIZ FILIALI
TALABALAR TURAR JOYI**



TTJ NIZOMI

TERMIZ - 2023



**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialining
Talabalar turar joyi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. TTA Termiz filiali talabalar turar joyida yashashning umumiy qoidalari, oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari, talabalarining huquq va majburiyatlari hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Filial turar joyida talabalarning yashashi, o'z ustida mustaqil ishlashi, dam olishi hamda sport, san'at va boshqa klublarda qatnashishi uchun sharoitlar yaratiladi.

3. Talabalar turar joyi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining hay'at qarorlari buyruqlari, oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasasi Ustavi, Kengashi qarorlari, filial direktorining buyruqlari hamda mazkur nizomga muvofiq olib boradi.

4. Talabalar turar joyiga filial xodimlari va talabalarning oila a'zolari hamda begona shaxslarni yashash uchun ruxsat berish qat'iy man etiladi.

5. Talabalar turar joyida yashaganlik uchun to'lov belgilash va uning miqdori filial Kengash qarori bilan belgilanadi.

**2-bob. TTA Termiz filiali turar joyida yashovchilarning
huquq va majburiyatlari**

6. Talabalar turar joyida yashovchilarning huquqlari:

talabalar turar joyi binolaridagi madaniy-maishiy jihozlardan foydalanish;

foydalanish uchun yaroqsiz holga kelgan jihoz, mebel va boshqa mulklarni ta'mirlash, yangilash hamda maishiy xizmatlardan foydalanishda yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishni so'rab filial rahbariyatga murojaat qilish;

talabalar turar joyida o'tkaziladigan ommaviy, madaniy, sport va tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish;

filialda yaratilgan shart-sharoitlar bo'yicha rahbariyatga takliflar bilan chiqish;

talabalar kengashi a'zolarini saylash va unga saylanish;

talabalar kengashi orqali talabalar turar joyining maishiy ta'minotini takomillashtirish, tarbiyaviy ishlar va madaniy hordiqni tashkil etish, yashash xonalarini

jihozlash bo'yicha masalalarni muhokama etishda ishtirok etish.

7. Talabalar turar joyida yashovchilarning majburiyatlari:

mazkur Nizom va Talabalar turar joyi ichki tartib qoidalari, shuningdek filial ma'muriyati bilan tuzilgan shartnoma qoidalariga rioya qilish;

navbatchilik jadvaliga binoan yashash xonalarida, qavatlarda, umumiy foydalanish joylari (hojatxona, yuvinish xonasi, oshxona va boshqa joylar) da navbatchilik qilish;

umumiy foydalanish joylari, yashash xonalari hamda dam olish joylarida namunali tozalikni tashkil etish, undagi jihozlardan to'g'ri va unumli foydalanish;

gaz, elektr jihozlaridan hamda isitish tizimidan foydalanish qoidalariga qat'iy rioya qilish va ulardan oqilona foydalanish;

talabalar turar joyidan uzoq muddatga ketayotib (yozgi va qishki ta'til, dam olish, amaliyot, akademik ta'til olgan hollar), talabalar turar joyi rahbarini yozma ravishda ogohlantirib qo'yish;

kundalik ehtiyojga ega bo'lmagan katta hajmdagi shaxsiy va qimmatbaho buyumlarni turar joyining buyumlar saqlash xonasiga topshirish;

yashab turgan xonasi va boshqa umumiy foydalanish joylarini har doim toza va tartibli tutish;

talabalar turar joyida yashovchilar bilan doimo samimiy, ahil munosabatda bo'lish;

talabalar turar joyidagi mavjud barcha jihozlarni namunali darajada tutish;

umumiy foydalanish joylariga o'rnatilgan yoritgichlar, elektr va gaz plitalarini buzmaslik, yuvinish xonasi, oshxona hamda ma'naviyat va ma'rifat xonalaridan to'g'ri foydalanish;

talabalar turar joyida o'tkaziladigan hasharlarda, atrofni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarida muntazam ravishda qatnashish;

talabalar turar joyi mol-mulkidan to'g'ri va unumli foydalanish va zarar yetkazmaslik;

o'qishni tugatgan yoki talabalar safidan chetlashtirilgan, akademik ta'til olgan hollarda ikki kun muddatda, shuningdek turar joyidan uzoq muddatga ketishdan oldin (yozgi va qishki ta'til, dam olish, amaliyot) jihozlarni va xona kalitini talabalar turar joyi rahbariga qaytarib topshirish.

8. Talabalar turar joyida yashovchilarga quyidagilar man etiladi:

talabalar turar joyi rahbarining ruxsatisiz bir xonadan ikkinchi xonaga ko'chib o'tish;

yashash xonasida kir yuvish;

xonadagi anjomlarni boshqa xonaga ruxsatsiz ko'chirish;

xonadagi elektr tarmoqlarini o'z xohishicha o'zgartirish va qo'shimcha yoritgich o'rnatish, devorlarga rasmlar chizish va yopishtirish;

ovoz kuchaytiruvchi qurilmalardan foydalanish, yuqori ovozda ashula aytish va musiqa asboblarni chalish;

elektr isitgichlar va yoqilg'idan foydalanib ishlaydigan asboblarni ishlatish;

yashash xonasida begona shaxslarning tunab qolishlari uchun joy berish;

spirtli ichimliklar, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, saqlash, sotish hamda

karta va qimor o‘yinlarini o‘ynash va h.k.;

talabalar turar joyi xonalarida diniy marosimlarga oid tadbirlar, yig‘inlar o‘tkazilishi, diniy saboq berilishi va o‘rganilishi.

9. Talabalar turar joyi faoliyatida ishtirok etishda faollik ko‘rsatgan namunaviy xulqli talaba quyidagi tartibda rag‘batlantiriladi:

- minnatdorchilik bildirish;
- maqtov yorlig‘i topshirish;
- esdalik sovg‘alari bilan taqdirlash;
- moddiy rag‘batlantirish.

10. Talabalar turar joyi ichki tartib qoidalari, filial odob-axloq qoidalarini buzgan talabaga nisbatan quyidagi choralar ko‘riladi:

- Hayfsan;
- Talabalar turar joyidan chiqarish.

11. TTA Termiz filiali talabalari safidan chetlatilgan yoki boshqa sabablarga ko‘ra talabalar turar joyidan chiqishi belgilangan talaba bir hafta muddat ichida talabalar turar joyidan chiqariladi.

12. Talaba talabalar turar joyida foydalanib kelayotgan mol-mulkka bevosita yetkazilgan haqiqiy zararni to‘lashi shart.

3-bob. Turar joyining vazifalari va funksiyalari

13. Turar joyining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalarning ta‘lim va tarbiya olishlari uchun turar joyida munosib shart-sharoitlar yaratish;

talabalar turar joyiga yashash uchun tavsiya etilgan talabalarni joylashtirish, ular bilan samarali ish olib borish;

talabalar turar joyida talabalarning o‘zini o‘zi boshqaruvini tashkil etish hamda o‘rnatilgan ichki tartib qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash.

14. Talabalar turar joyi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) talabalarning ta‘lim va tarbiya olishlari uchun turar joyida munosib shart-sharoitlar yaratishda:

talabalar turar joyi ish rejasini bugungi kun talablari hamda talabalarning xohish-istaklari, jamiyatimizdagi islohotlarni inobatga olgan holda tayyorlash va tasdiqlash uchun kiritish;

turar joyida talabalarning yashashi, o‘z ustida mustaqil ishlashi, dam olishi hamda sport, san‘at va boshqa to‘garaklarda qatnashishi uchun sharoitlar yaratish;

talabalar turar joyini TTA Termiz filiali tomonidan moddiy-texnika ta‘minoti, uni kapital va joriy ta‘mirlash, binodagi qattiq va yumshoq mebel, xona jihozlari (ko‘rpa-to‘shak, yopinchiqlar va boshqalar), texnika vositalarini saqlash, ta‘mirlash, hududni obodonlashtirish, tozaligini ta‘minlash, kommunal-xo‘jalik xizmatlari (issiq va sovuq suv ta‘minoti, kanalizatsiya, issiq suv quvurlarini ta‘mirlash) va boshqa shart-sharoitlar yaratish;

o‘quv va dars tayyorlash xonasi, dam olish xonasi, tibbiyot xonasi, yuvinish

xonasi, buyumlarni saqlash xonasi, oshxona, sport va kino zallari va ota-onalar xonalarini muntazam foydalanishga yaroqli holda saqlash;

talabalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirish uchun filial ma'muriyati va turli tashkilotlar tomonidan reja asosida va rejadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkillashtirish;

b) Talabalar turar joyiga yashash uchun tavsiya etilgan talabalarni joylashtirish, ular bilan samarali ish olib borishda:

talabalar turar joyida yashashga tavsiya etilgan talabalar bilan "Talabalar turar joyidan xona va jihozlar berish to'g'risida" shartnoma va "Talabalar turar joyidan xona va jihozlarni topshirish-qabul qilish" dalolatnomalari tuzish va tibbiy ko'rikdan o'tkazish bilan bog'liq ishlarni tashkillashtirish;

talabalarni yashash xonalariga joylashtirish;

sanitariya-gigiena normalarining bajarilishini ta'minlash;

har bir yashash xonasi uchun xona sig'imidan kelib chiqib, yashash uchun zarur anjomlar bilan ta'minlash;

talabalar turar joyida yashaydigan talabalarning shaxsiy varag'i, ular haqidagi umumiy ma'lumotlar va statistik jadvallarni yuritish;

v) talabalar turar joyida talabalarning o'zini o'zi boshqaruvini tashkil etish hamda o'rnatilgan ichki tartib qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;

talabalar turar joyida talabalarning o'zini o'zi boshqaruvini shakllantirish va amalga oshirish maqsadida – Talabalar kengashini tashkil etish;

talabalar turar joyida o'rnatilgan ichki tartib qoidalariga rioya etilishini ta'minlash.

4-bob. Turar joyi faoliyatini tashkil etish

15. Talabalar turar joyi o'rnatilgan talabalar asosida faoliyat yuritishi uchun filial direktori shaxsan mas'uldir.

16. Talabalar turar joyida beshta tashabbus xonalari, dam olish xonalari, tibbiyot xonasi, oshxona, hojatxona, yuvinish xonasi, o'quv zali, kutubxona, sport zali, buyumlarni saqlash xonasi va boshqa xonalar tashkil etiladi.

17. Talabalar turar joyi oshxona gaz plitalari, stol-stul, suv tarmog'i, sanitariya jihozlari bilan ta'minlanishi hamda yong'in xavfsizligi va sanitariya talablariga javob berishi shart.

18. Talabalar turar joyini filial direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan talabalar turar joyi mudiri boshqaradi. Mudir talabalar turar joyidan foydalanish, ichki tartib qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash, talabalarga qulay sharoitlarni yaratishni tashkil etish uchun mas'ul hisoblanadi.

Talabalar turar joyi shtatlar birligini ta'minlash, ularni o'z xizmat vazifalarini bajarishlarini nazorat qilish, talabalar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish va ijtimoiy himoya qilish hamda talabalar o'rtasida tashkiliy, xo'jalik, huquqiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish talabalar turar joyi rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

19. Talabalar turar joyida olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish mas'uliyati filial yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari zimmasiga yuklanadi.

20. Filial talabalar turar joyida ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi uchun shaxsan pedagog-tarbiyachi mas'ul hisoblanadi. Pedagog-tarbiyachining ish rejasi filial direktori tomonidan tasdiqlanadi.

21. Talabalar turar joyida yashash uchun talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov miqdori har o'quv yili boshida filial Kengashi qarori bilan belgilanadi. Talabalar turar joyida yashaganlik uchun to'lovlarni amalga oshirish muddatlari shartnomada belgilanadi.

Talabalarning yozgi ta'til davri uchun to'lov amalga oshirilmaydi.

22. Talabalar turar joyida yashaganlik uchun belgilangan to'lovlarni amalga oshirishda TTA Termiz filialining quyidagi toifadagi talabalariga imtiyozlar filial Kengashi tomonidan berilishi mumkin:

nogironlar, chin yetim va yetim (ota-onalaridan biri vafot etgan), boquvchisini yo'qotganlar, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari va kam ta'minlangan talabalarni to'lovdan ozod etish;

23. Talabalarni talabalar turar joylariga joylashtirishda mavjud o'rinlardan ehtiyoj va talab yuqori bo'lgan holatlarda quyidagi mezonlar ketma-ketligi asosida talabalar ustunlikka ega bo'ladi:

- Chin etim talabalar (kursidan qat'iy nazar);
- "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari;
- Nogironligi mavjud talabalar (kursidan qat'iy nazar);
- Boquvchisini yo'qotgan talabalar;
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj, moddiy ahvoli og'ir talabalar (shuningdek, bitta oilada 2 yoki undan ortiq shaxs to'lov-shartnoma asosida o'qiyotgan bo'lsa);
- Xorijdan kelib tahsil olayotgan talabalar;
- 1-2 kurs talabalari;
- Talaba qizlar;
- Yoshlar ittifoqining faollari;
- Xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar.
- Yozgi ta'til davrida "Fidokor" yoshlar mehnat otryadi tarkibida talabalar turar joylarini ta'mirlashda ishtirok etgan talabalar;
- Talabalar turar joyida doimiy ravishda talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari va boshqa jihatlar bilan doimiy ravishda faollik ko'rsatib kelayotgan talabalar;

24. Talabalar Turar joyida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar reja tasosida turli tashkilotlarni jalb qilgan holda olib borilishi mumkin.

25. Talabalar turar joyida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar yoshlar masalasi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan muvofiqlashtiriladi.

5-bob. Turar joyida talabalarning o'zini o'zi boshqaruvini tashkil etish

26. Talabalar turar joyida talabalarning o'zini o'zi boshqaruvini shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Talabalar Kengashi tashkil etiladi.

27. Talabalar Kengashi o'z faoliyatini O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich

tashkiloti to'g'risida va Talabalar kengashi to'g'risida nizomlar asosida tashkil etadi va olib boradi.

28. Talabalar Kengash raisi faoliyat olib borgan davrda talabalar turar joyi rahbarining yoshlar bo'yicha maslahatchisi hisoblanadi.

29. Talabalar Kengashining ish rejasi va dasturi Kengash raisi tomonidan ishlab chiqilib, boshqaruv a'zolari, pedagog-tarbiyachi bilan muhokama qilinadi hamda yoshlar masalasi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

30. Yashovchilarga rag'batlantirish yoki intizomiy choralar ko'rish masalasi Kengash bilan kelishilgan xolda hal etiladi.

6-bob. Turar joyi faoliyatini nazorat qilish

31. Talabalar turar joyi faoliyati filial rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan maxsus reja asosida o'rganib boriladi hamda uning natijalari filial Kengashi yig'ilishlarida muhokama etiladi.

32. Talabalar turar joyi filial rahbariyati tomonidan doimiy nazorat etib boriladi va o'z yo'nalishi bo'yicha vazifalarni amalga oshirish yuzasidan direktorga takliflar kiritadi.

33. Talabalar turar joyida bildirilgan mulohaza va fikrlarini yozish uchun qaydnomada daftari (muhrlangan) bo'lishi lozim.

34. Ijtimoiy tarmoqlarda talabalar fikrlarini qabul qilish tashkil etiladi va yashovchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar har haftada bir marta talabalar turar joyida fakultet dekani va talabalar turar joyi rahbari va Talabalar Kengash hamkorligida o'rganilib, muhokama qilinadi hamda tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

35. Talabalar turar joyini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.